

Davlat ramzi – xalq iftixori

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining xalqimiz hayotida tutgan o‘rni, ahamiyati beqiyosdir. Zotan, biz mustaqillik tufayli o‘zligimizni angladik.

Shu o‘rinda aynan istiqlol tufayli mamlakatimizda mustaqillik timsoli bo‘lgan davlat ramzlarining qabul qilinganini ta’kidlash lozim. Zero, el-yurtimizning g‘ururi, iftixori bo‘lgan bu ramzlarda tariximiz, boy ma’naviy-madaniy merosimiz, milliy urf-odat hamda an‘analarimiz, buyuk maqsad, ezgu orzu-intilishlarimiz o‘z ifodasini topgan.

Ta’kidlash lozimki, davlatimiz ramzlari – Vatanimiz suvereniteti, xalqimizning nafaqat azaliy umid va istaklari, balki porloq kelajagi timsollari hamdir. Ularni hurmat qilish, asrash – barchamizning fuqarolik va farzandlik burchimiz. Milliy timsollar va ramzlarning har biri katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasidir.

Shunday ramzlarimizdan biri – Davlatimiz gerbidir. O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbida xalqimizning tarixi, milliy qadriyatlari, turmush tarzi, yurtimizning go‘zal tabiati aks etgan.

Undagi har bir rang, har bir belgida muayyan ramziy ma’no bor. Xususan, afsonaviy Humo qushi baxt va erksevarlik timsoli hisoblanadi. Bu esa adolat tamoyiliga asoslangan davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning mohiyati haqida so‘zlaydi.

Gerbda xalqaro tinchlik va hamjihatlikka chaqiruvlarni ham ko‘rish mumkin. Jumladan, yarim oy va yulduzning tasviri mamlakatdagi musulmonlar va boshqa diniy konfessiyalar o‘rtasidagi hamjihatlikni aks ettirib, ko‘p yillik diniy-tarixiy an‘analarimizni qayta tiklashga bo‘lgan istakdan dalolat beradi.

Bug‘doy ramzi esa, o‘z navbatida, pirovard maqsadimiz farovon hayotga intilishni anglatadi.

Bugungi kunda mustaqillik sharofati bilan ushbu intilishlar ro‘yobga chiqmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan tashqi siyosat va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi o‘laroq ushbu tamoyillar mustahkamlandi. Ayni paytda o‘zgarishlarning asosiy qismi mamlakat aholisining farovonligini oshirish, adolatli jamiyat qurish, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaxshi qo‘shnichilik an‘analarini mustahkamlashga qaratilgani bilan ham ahamiyatlidir.

Bir so‘z bilan aytganda, davlatimiz gerbidan o‘zbek xalqining milliy xarakteri, ya’ni tinchliksevarligi va erksevarligi o‘z aksini topgan bo‘lib, uni saqlash va asrab-avaylash har birimizning burchimiz hisoblanadi.

Zero, Vatan timsollari milliy g‘ururimizni yuksaltirishga, ona diyorimizga bo‘lgan muhabbat va sadoqatimizni kuchaytirishga, kelajagimizga ishonchimizni yana-da mustahkamlashga xizmat qiladi.

Timur AHMEDOV,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i